

QADIMGI DUNYO IQTISODIY TA'LIMOTLARI

Salimov Aziz Farxod o'g'li¹

¹ *Qarshi Davlat Texnika Universiteti O'qituvchisi*

Uraqtosheva Marjona Nomoz qizi²

² *Qarshi Davlat Texnika Universiteti , Talabasi*

ARTICLE INFO

ARTICLE HISTORY:

Received: 27.11.2025

Revised: 28.12.2025

Accepted: 29.03.2025

ABSTRACT:

Insoniyat iqtisodiy tarixi davlatlar paydo bo'lgunga qadar ham mavjud bo'lgan , jumladan, ovchilik, terimchilik kabi birlamchi kasblar holida yuzaga chiqargan . Aniq iqtisodiy munosabatlar, g'oyalalar haqida biz davlatlar va yozma manbalar yuzaga kelgan davr orqali tasavvur qila olamiz . Mazkur maqolada ilk iqtisodiy fikrlar bo'lgan qadimgi Bobil davlatining g'oyalari, Sharq va G'arb qarashlari orqali mulohazalar yuritiladi . Ular ichidan , ayniqsa , Zardo'shiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g'oyalarga to'xtalinadi , chunki bu g'oyalarda bizning hozirgi turmush tarzimizni belgilab bergen.

KEYWORDS:

*iqtisodiy fikr,
quldarlik, mulkini
himoya qilish, ijara,
sudxo'rlik, terimchilik,
ovchilik, baliq ovlash,
o'troqlik turmush tarzi,
qishloq xo'jaligi .*

KIRISH. Ilk iqtisodiy qarashlar respublikamiz iqtisodchi olimlar tomonidan “Iqtisodiy ta'limalar tarixi” fanidan o‘quv qo’llanma, darsliklarda batafsil yoritilgan. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridan boshlab, xo‘jalik yuritish to‘g‘risida u yoki bu ko‘rinishdagi iqtisodiy fikrlar amal qilib kelgan. Lekin o‘scha paytdagi iqtisodiy fikrlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bizning davrimizga yetib kelmagan. Chunki ulami avlodlardan-avlodlarga, asrlardan-asrlarga olib o’tuvchi vosita - yozuv bo’lmagan. Demak, iqtisodiy fikrlarning paydo bo’lishi va shakllanishi yozuv bilan bevosita bog’liq. Yozuv bundan olti ming yil avval, miloddan to‘rt ming yil oldin o‘scha davrning madaniyat o‘chog‘i hisoblangan Mesopotamiyada ijod qilindi. Qadimgi grek tarixchilari hozirgi Iroqdagagi Dajla va Frot daryolarning oraligidagi joylarni «Mesopotamiya» deb atagan. Bu grekcha so‘z bo‘lib, “Ikki daryo oralig‘i” ma’nosini bildiradi. Dajla va Frot daryolari hozirgi Turkiya chegarasidan boshlanib, Sharq tomon oqib, Fors ko’rfaziga qo’yiladi. Ayni zamonda ikki daryo vodiysining janubiy qismidagi asosiy mahalliy xalq Shumerlar bo’lib , eng dastlabki yozuvni ular yaratgan. Dastlabki yozuv ijod qilingandan keyin , Misr va Qadimgi Sharqdagi

xalqlar tarix tiliga kiritila boshladi. Demak, Qadimgi Dunyo quldarlik davridan boshlab dastlabki iqtisodiy fikrlar shakllanib boshladi.

Qadimgi Sharqda ancha rivojlangan davlatlardan biri Bobil bolgan. Unda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari nisbatan tez rivojlana boshladi. Jamiyatdagi kishilar borgan sari ko‘proq tovar ayirboshlashga jalg qilingan. Ularning ba’zilari sudxo‘rlar to‘riga ilinib, xonavayron bo’lgan va qullarga aylangan. To’la huquqli bolmagan (qaram) kishilar qatlamining ancha kuchayib borishi vujudga kela boshlagan. Harbiylar va soliq to’lovchilardan ajralib qolishga olib keluvchi bunday jarayon davlatni zaiflashtirgan. Qadimgi Sharq fikrlarni ajratib turuvchi xususiyat bu:

- tovar-pul munosabatlarining ilk ko‘rinishlari;
- xususiy mulk paydo bo’lishi;
- davlat tomonidan huquqiy targ’ibotlar, jumladan mulkni himoya qilinishi;
- narxlarning shakllanishi;
- sudxo‘rlik qoralanishi;
- yillik foiz me‘yori kumushda 20 % va donda 33 % ni tashkil etilishi.

Jamiyatdagi erkin kishilarni sudxo‘rlardan himoya qilish maqsadida (ularning mulkini himoya qilish, savdo, ijara va boshqa shartlarini qonuniy ravishda rasmiylashtirish) xususiy, huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinishi zaruriyati kuchaydi. Davlat bu vazifalarni qonunchilik yo‘li bilan hal qilishga uringan. Bu borada iqtisodiy fikrlar nuqtai nazardan Eshnun Podshohi qonunlari (m.o. XX asr.) va Xammurapi qonunlari (m.o. XVIII asr.) ancha diqqatga sazovor.

Qadimgi Sharqning iqtisodiy ta’limoti, asosan, davlatni boshqarish to‘g‘risidagi ilm, qonunlarga oid edi. Jamiyatning iqtisodiy hayotida amalda butunlay natural xo‘jalik faoliyat ko‘rsatar edi. Qadimgi Sharq yodgorliklarida davlatni boshqarish san’ati bo‘yicha qoida va qonunlar to‘plami hamda iqtisodiy g‘oyalar saqlanib qolgan. Bizgacha bo’lgan birinchi yodgorlik «Geraklepolik shohning o‘z o‘g‘liga nasihatari» esdaliklari (Qadimgi Misr, eramizdan avval) juda ham qadimgi manbalardan hisoblanadi. Muallifning ta’kidlashicha, «nasihatlarda» e’tiborni boshqaruv apparati faoliyatini samarali yuritish zaruriyati va fir’avnlar (Qadimgi Misr podshohlarining nomi yoki unvoni) va aholi o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlar ko‘rsatilgan. Bu davrda sinfiy ajralish to‘la shakllanmagan bo‘lib, boshqaruv ishiga ishbilarmonlarni taklif etish (yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan) mumkin bo’lgan. Saqlanib qolgan yodgorliklarda va yozma qonunlarda iqtisodiy-siyosiy g‘oyalar mavjud bo’lgan. Unda mustaqil ishlab chiqaruvchining huquqlarini himoya qilish, tartibga solish

hamda ishlab chiqaruvchilar qatlamini yemirilishini to‘xtatishga qarshi muhim fikrlar berilgan.

Qadimgi Xitoydagi ilmiy iqtisodiy qarashlaming avj olgan davri eramizdan avvalgi VI-III asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari eramizdan avvalgi II ming yillikda paydo bo‘lgan. Iqtisodiy ta’limotlar tarixida Xitoyda Konfutsiy ta’limoti juda katta rol o‘ynadi. Bu ta’limotning asoschisi Konfutsiy (ilmiy asarlarda shunday yoziladi) yoki Kun-Szi (eramizdan awalgi 551-479-yillar)dir. Uning asosiy ilmiy qarashlari «Lun-yuy» («Suhbat va muhokama») to‘plari bo‘lib, u shogirdlari tomonidan to‘plangan. Konfutsiy mamlakatning kelajagi uchun, o‘tmishini ko‘proq bilishni o‘zining ijtimoiy oliy maqsadi deb bildi. U urug‘chilik, aslzodalik pozitsiyasini himoya qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash uchun u ma’naviy poklanish dasturini ilgari surdi. Chunki o ‘sha davrda Xitoyda temirni qayta ishlash kuchayib, tovar-pul munosabatlari rivojlanishi natijasida savdo va savdogarlarning jamiyatda ta’siri ortdi. Aynan shu davrda bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga intiluvchi mafkura (ideologiya) sifatida konfutsiychilik maydonga keldiki, bu ta’limot quldorlik tuzumini himoya qilib «tabiiv huquq» g‘oyasini ilgari surdi. Konfutsiy quldorlikni himoya qilish bilan birga yirik quldorlarni ham himoya qiladi. Bu bilan ijtimoiy «tenglikka» erishishga harakat qiladi. Konfutsiy mulkning ikki shaklda bo‘lishini e’tirof etadi va bular quyidagilardir:

1. «buyuk jamoa mulki»-kollektiv mulkchilik, ya’ni dehqonlar jamoasining mulki;
2. «xususiy mulkchilik» -quldorlaming mulki.

Uning ta’limotida ba’zi qarama-qarshiliklami ham ko‘rish mumkin. Masalan, ichki qarama-qarshiliklarda xususiy mulkni himoya qiladi. U insonlarni tabaqalanishini tabiat va xudo tomonidan hukm qilingan haqiqatdir deb yozadi.

Qadimgi Hindistonda yaratilgan “Veda”larda ham bir qancha muhim iqtisodiy g‘oyalar keltirilgan. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, zardushtiylik (zoroastrizm) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo‘lgan «Avesto» ya’ni «hayot yo‘riqnomasi» (asli «Ovasta») da ham muhim iqtisodiy flkrlar bayon etilgan. «Avesto» bo‘yicha turli tabiiy ofatlarga qarshi zaxira oziq-ovqatlar barpo qilish qo’llab-quvvatlanadi (Konfutsiylik va boshqa ta’limotlarda ham bu g‘oya katta o‘rinni tutadi). «Avesto»ning yozilishi jihatidan keyingi davrga mansub flkrlarda, masalan, chorvadorlar hamkor Yim to‘g‘ risidagi afsonada «oltin asr»dagi mol-qo‘ylarning mo’ll-ko’lligi haqida so‘z yuritiladi. Yimning xizmati ulug‘lanib, kuchli sovuq, qor va suv to‘fonidan hayvonlar va odamlarni qutqarish uchun «varu» (qo‘rg‘on) qurdirib, unga suv o’tkazadi, mayda va yirik mollar, odamlar, it, qush, barcha o’simliklar urug‘i va yonib, porlab turgan olovni keltiradi. Odamlar

uchun turarjoy, hayvonlar uchun molxonalar qurilgani aytildi. «Avesto»ning 3-bobi (fargard) «Vandidot» bo'lib, nisbatan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Unda, asosan, dehqonchilik va dehqon mehnati ulug'lanadi. Endilikda ko'proq ekin ekiladigan, don, o't, mevali ekinlar o'stiriladigan, suvsiz joylarni sug'oradigan, suvi ortiqcha yerlar quritiladigan (sug'orish bilan birga zax qochirish) joylar maqtaladi, hatto yerkarda ko'p go'ng solinishi, buning uchun esa ko'proq kichik va katta qoramollar boqish tavsiya etiladi. Bunda juda katta tabiiy mantiq borligi aniq ko'rinish turibdi.

Xulosa. Dastlabki iqtisodiy g'oyalar insoniyatning paydo bo'lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha yetib kelganlari mil.avv. 2-mingyllikka to'g'ri kelib, ko'proq qadimiy Osiyo xalqIarining xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Antik dunyoga ma'lum darajada amaliyotni nazariy umumlashtirish, 24 abstraksiyalash oqibatida birinchi iqtisodiy mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriylar shakllana boshladi. Qullikka asoslangan natural xo'jalik, ayniqla qishloq xo'jaligi qollab quvvatlangan, boylikning asosiy manbayi mehnat deb hisoblangan. Hindistonda «buyumning qiymati»ni «ish kunlari» bilan belgilab, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan, foyda masalasi ko'tarilib, uning miqdori cheklangan. Davlatning iqtisodga aralashuvi qollab-quvvatlangan. Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar ancha rivojijangan bo'lib, tabiiy huquq nazariyasi ilgari suriladi, ularda mehnat taqsimoti, davlatning roli, xalq boyligi va hukmdorlar mulki o'rtasidagi bog'ianish, iqtisod va qonun masalalariga tegib o'tiladi. Agar Osiyoda quldorlik ko'proq patriarchal shaklda bo'lsa, antik dunyoda u klassik ravishda ro'y bergan, natural hunarmandchilik, dehqonchilik xo'jaligi qollangan, ammo bu davr oxirida savdo, sudxo'rlik ham qollab quvvatlangan. Pulning asosan almashuv (Ksenofont jamg'arish) funksiyasi tan olingan. Mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish, boylik jamg'arish zararli deb hisoblangan. «Ekonomika», «Xrematistika» tushunchalari kiritilgan, ular bir-biriga qarshi qo'yilgan, qiymat kategoriysi, tovariarning almashuv tamoyillari (ilk yo'nalish) keltirilgan, ammo buning mezoni (mehnat miqdori, foydalilik) aniq berilmagan. Rimda quldorlik yuksaldi, lekin tanazzulga ham uchray boshladi (Osiyoda feodalizm munosabatlari oldinroq ro'y bergan). Qulchilikka munosabat o'zgardi, erkin sohibkorlik ustunligi oydin bo'lib qoldi, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo va sudxo'rlik faoliyati qollandi (Sitseron). Mayda ishlab chiqarishga o'tishjarayoni, islohotlar (Grakxlar) yo'li boshlandi. Katon tomonidan foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni xato ravishda qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan. Qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu davrdagi iqtisodiy g'oyalarda natural xo'jalik (nobozor) konsepsiyalari asosiy hisoblanadi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2007-yil. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”. (Darslik). A. Razzoqov, Sh. Tashmatov, N.O’rmonov.
2. Toshkent – 2021. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” (Darslik). Sh.X. Tashmatov, N.I. Xasanxonova

